

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

Ro'yxatga olindi:
№ BD-60840200-1.21
29.08 2024 yil



"TASDIQLAYMAN"
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
q.x.f.d., professori
A.A. Elmurqodov
29.08 2024 yil

**KLINIK DIAGNOSTIKA
ISHCHI O'QUV DASTURI (SILLABUSI)
(Sirtqi ta'lim 4-bosqich talabalari uchun)**

Bilim sohasi: 800000 – Qishloq o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya

Ta'lim sohasi: 840000 – Veterinariya

Ta'lim yo'nalishi: 60840200– Veterinariya farmatsevtikasi

Samarqand – 2024

Fanning ishchi o'quv dasturi (sillabusi) 202__ yilda tasdiqlangan o'quv reja va fan dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

M.B.Safarov – SamDVMChBU, “Ichki yuqumsiz kasalliklar” kafedrasida dotsenti, veterinariya fanlari nomzodi.

M.A. Sulaymonov - SamDVMChBU “Ichki yuqumsiz kasalliklar” kafedrasida katta o'qituvchi (PhD).

Sh.A.Botirova - SamDVMChBU, “Ichki yuqumsiz kasalliklar” kafedrasida assistenti.


Taqrizchilar:

M.S. Kuziyev – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti “Odam va hayvonlar fiziologiyasi va biokimyo” kafedrasida mudiri b.f.n. dotsenti.

M.B.Xoljigitova - Samarqand davlat tibbiyot universiteti, 4-ichki kasalliklar kafedrasida dotsenti, t.f.f.d.

Fanning ishchi o'quv dasturi “Ichki yuqumsiz kasalliklar” kafedrasining 202__ yil “___” ___dagi “___” -son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet Kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.


Kafedra mudiri



Ro'ziqulov N.B.


Fanning ishchi o'quv dasturi “Veterinariya profilaktikasi va davolash” fakulteti Kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (202__ yil ___dagi ___-sonli bayonnoma).

Fakultet kengashi raisi:



Qurbanov SH.X.

**O'quv-uslubiy boshqarma
boshlig'i professor:v.b.**



Ro'ziqulov R.F.

Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
Mohiyatini tushunish;
Bilish, aytib berish;
Tasavvurga ega bo'lish;

4 (yaxshi) baho:

Mustaqil mushohada yurita olish;
Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
Mohiyatini tushunish;
Bilish, aytib berish;
Tasavvurga ega bo'lish;

3 (qoniqarli) baho:

Mohiyatini tushunish;
Bilish, aytib berish;
Tasavvurga ega bo'lish;

2 (qoniqarsiz) baho:

Dasturni o'zlashtirmaganlik;
Fanning mohiyatini bilmaslik;
Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;
Mustaqil fikrlay olmaslik.

Fan Sillabusi
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti

Fan to'g'risida ma'lumot

Fan shifri: KD 1504

Fan nomi: "Klinik diagnostika"

Semestr/yil: 7-semestr/2024-2025 o'quv yili

Kafedra: Ichki yuqumsiz kasalliklar

Soatlar/kreditlar: 4,0 ECTS (20 auditoriya soati, 100 soat mustaqil ta'lim)

Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	Laboratoriya mashg'ulotlari	Mustaqil ta'lim	Jami
6	10	4	100	120

Fan bo'yicha mashg'ulotlarning joylashuvi:

Auditoriya vaqti: dars jadvaliga asosan

Talablar:

Fan uchun mas'ul kafedra: **Ichki yuqumsiz kasalliklar**

Instruktor to'g'risida ma'lumot

Kafedra joylashgan joyi: **SamDVMChBU, 3-o'quv binosi, 319-xona**

Telefon: +99893-344-79-88 ish telefoni; mobil: +99894-471-78-72

E.mail. maruf@mail.ru Ish vaqti: Uchrashuvga ko'ra

I.Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda hayvonlar kasalliklarga to'g'ri tashxis qo'yish, samarali davolash va oldini olish maqsadida zamonaviy, umumiy, maxsus klinik-laborator tekshirish usullari, hayvonlarni ma'lum tartib va ketma-ketlikda umumiy va tizimlar bo'yicha tekshirishni; kasalliklar bosqichlarini va kasal hayvon holatini aniqlashni tekshirish natijasida olingan ma'lumotlarni ilmiy asosda tahlil qilib kasallikka to'g'ri tashxis qo'yish bo'yicha mutaxassislik profiliga (yo'nalishiga) mos ravishda bilim, ko'nikma va malaka shakillantirishdir.

II.Fanning vazifasi – talabalarga zamonaviy, umumiy, maxsus, klinik-laborator tekshirish usullarini, har xil turdagi hayvonlarni ro'yxatdan o'tkazish va anamnez ma'lumotlarini to'plashni, hayvonlarni umumiy va tizimlari bo'yicha tekshirish tartibi va usullarini, ichki organlar, suyaklar va bo'g'imlar kasalliklar rentgenodiagnostikasini, hayvonlardan olingan qon, siydik, kattaqorindagi oziqalarni, oshqozon shirasini laborator usullarida tekshirish metodikalarini, moddalar almashinuvi buzilishi kasalliklarga tashxis qo'yish usullarini, hayvonlar salomatligini doimiy nazorat qilish maqsadida dispanserizatsiya tekshirishlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasini o'rganish va amaliyotga qo'llash asosida kasalliklarga to'g'ri tashxis qo'yishni o'rgatishdan iborat

III. Fanni o'zlashtirish natijasida talaba

- Hayvonlarni ichki a'zolarining anatomiyasi, fiziologiyasi va topografiyasi; hayvonlarni klinik-laborator tekshirish usullari, anamnez olish tartibi va ro'yhatga olish, hayvonlarni umumiy tekshirish tartibi, yurak-qon tomir, nafas, ovqat hazm qilish, ayirish va asab tizimini tekshirish tartibi tasavvuriga

ega bo'lish;

hayvonlarning gabitusini aniqlash, teri qoplamasi va terini tekshirish; shilliq pardalar va limfa tugunlarini tekshirish; nafas, yurak qon-tomir, hazm, ayirish va asab tizimlarini tekshirish; moddalar almashinishi buzilishiga tashxis qo'yish va rentgenodiagnostika o'tkazish usullari bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lish;

- sog'lom va kasal hayvonlarni tekshirish natijasida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va vrachning xulosasini shakillantirish; o'rgangan tekshirish usullarini amaliy darslarda, dala mashg'ulotlari va amaliyotlarda mustaqil qo'llash malakasiga ega bo'lish kerak.

IV. O'qitish usullari:

Fanni o'qitish jarayonida zamonaviy uslublardan foydalanish, sohadagi muammolarni ta'limning ommaviy shakllari bilan bog'lab, talabalarning nazariy bilimlarini amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlab borish lozim. O'quv materiallarini talabalar tomonidan unumli o'zlashtirish uchun ko'rgazmali qurollar o'qitishning texnik vositalari, sog'lom va kasal hayvonlar, fan bo'yicha chop etilgan darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar hamda ma'ruza matnlaridan keng foydalanish, talaba bilimini baholash tizimini joriy etish. Ma'ruza mashg'ulotlarida ilg'or pedagogik texnologiyalar foydalaniladi.

"Klinik diagnostika" kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.

Tizimli yondoshuv.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv.

Dialogik yondoshuv.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.

Muammoli ta'lim.

V. Fanning tarkibiy tuzilishi:

5.1. "Klinik diagnostika" fanidan rejalashtirilgan ma'ruza mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasi

Ma'ruza mashg'ulotlarining:			
№	mavzulari	rejasi	soat
1-modul. Kirish. Fanning maqsadi va vazifalari. Fanning qisqacha tarixi va rivojlanish bosqichlari			
1.1	"Klinik diagnostika va rentgenologiya" fanining mazmuni, predmeti va metodi.	1.1.1. Klinik diagnostika va rentgenologiya fanining tarixi va rivojlanish bosqichlari. Fanning maqsadi va vazifalari. 1.1.2. Kasallik holatini aniqlashda symptom, diagnoz, prognoz tushunchalari. 1.1.3. Hayvonlarni tekshirish usullari. ko'rish, paypaslash, perkussiya, auskultatsiya va termometriya. 1.1.4. Hayvonlarni klinik tekshirish tartibi:	2

VII. Adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1. Safarov M.B., Safarov M.M. Klinik diagnostika. Darslik. "Fan ziyosi" nashriyoti.Toshkent, 2023 yil.
2. Safarov M.B., Safarov M.M. Veterinariya diagnostikasi va rentgenologiyasi. Darslik. "Sano- standart" nashriyoti.Toshkent, 2019 yil.
3. Safarov M.B., Raxmonov U.A. Klinik diagnostika va rentgenologiya fanidan amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari. O'quv qo'llanma. "Fan ziyosi" nashriyoti. Toshkent. 2023 yil.

Qo'shimcha adabiyotlar

4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.
5. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696 son Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.
9. Курдеко А.Р. Клиническая диагностика болезней животных. Медицинская книга, Минск, 2013 год.
10. Norboyev Q.N., Bakirov B.B., Eshburiyev B.M. Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari. Darslik. Samarqand, SamDU tahririy nashriyot bo'limi, 2020 yil. – 435 bet.

Axborot manbaalari

11. [www. Ziyo.net.uz](http://www.Ziyo.net.uz).
12. www.veterinariya.medsinasi.uz
13. www.sea@mail.net21.ru
14. www.veterinary@actavis.ru

VIII. Baholash

Talabalarning fanlarni o'zlashtirishi 5 ballik tizimda baholanadi.

5 (a'lo) baho:

Xulosa va qaror qabul qilish;

Ijodiy fikrlay olish;

Mustaqil mushohada yurita olish;

VI. "Klinik diagnostika" fanidan rejalashtirilgan talabalar mustaqil ta'limining kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Amalga oshirish mexanizmi	Hajmi (soatda)
1	Teri qoplamasi, hosilalarini tekshirish.	Adabiyotlardan konspekt qilib referat yozish	6
2	Shilliq pardalar va limfa tugunlarni tekshirish	Adabiyotlardan foydalanib amaliy topshiriqlarni bajarish	6
3	Qo'shimcha bo'shliqlarini tekshirish.	Adabiyotlardan foydalanib amaliy topshiriqlarni bajarish	6
4	Sog'lom hayvonlarda o'pkaning chegaralari va kasalliklarda o'zgarishi	Adabiyotlardan konspekt qilib referat yozish	6
5	Yurak, qon-tomir tizimini tekshirish.	Adabiyotlardan foydalanib amaliy topshiriqlarni bajarish	6
6	Arteriya qon tomirlarini tekshirish	Adabiyotlardan konspekt qilib referat yozish	6
7	Vena qon tomirlarini tekshirish.	Adabiyotlardan konspekt qilib referat yozish	6
8	Elektrokardiografiya usulini o'tkazish tartibi va qoidalari, yozib olish.	Adabiyotlardan konspekt qilib referat yozish	6
9	Hazm tizimi a'zolarini tekshirish.	Adabiyotlardan foydalanib amaliy topshiriqlarni bajarish	6
10	Ishtaha, chanqoqlik, ozuqani olish, chaynash va yutishni; tekshirish	Adabiyotlardan konspekt qilib referat yozish	6
11	Kavsh qaytarishni, kekirishni va qayd qilishni tekshirish	Adabiyotlardan foydalanib amaliy topshiriqlarni bajarish	6
12	Asab tizimi a'zolarini tekshirish.	Adabiyotlardan konspekt qilib referat yozish	6
13	Modda almashinishi buzilishini aniqlash.	Adabiyotlardan konspekt qilib referat yozish	6
14	Siydikni tekshirish.	Adabiyotlardan konspekt qilib referat yozish	6
15	Qonni tekshirish.	Adabiyotlardan foydalanib amaliy topshiriqlarni bajarish	6
16	Rentgenodiagnostika turlari	Adabiyotlardan konspekt qilib referat yozish	6
17	O'pka kasalliklariga diagnoz qo'yishda rentgenografiya usulining qo'llanilishi.	Adabiyotlardan foydalanib amaliy topshiriqlarni bajarish	4
Jami:			100

		ro'yxatdan o'tkazish, anamnez ma'lumotlarini to'plash. 1.1.5. Hayvonlarni umumiy tekshirish: tashqi ko'rinishi (gabitus)ni aniqlash. 1.1.6. Teri qoplamalari, teri hosilalari, teri, shilliq pardalar va limfa tugunlarni tekshirish usullari va turlari. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va vrach xulosasini shakllantirish.	
2-modul. Yurak-qon tomir tizimini tekshirish			
2.1	Yurakni-qon tomirlarni va nafas olish tizimini tekshirish.	2.1.1.Tizimning anatomo-fiziologik xususiyatlari. Yurakni-qon tomirlarni va nafas olish tizimini umumiy va maxsus usullar bilan tekshirish. 2.1.2. Yurak turtkisi va uning o'zgarishlari. Yurakni perkussiya qilish. Yurak chegaralari va ularning o'zgarishi. Yurakni auskultatsiya qilish. 2.1.3.Yurak tonlari va ularning o'zgarishlari, tashxis qo'yishdagi ahamiyati. Yurak shovqinlari va ularning tasniflanishi: endokardial, perikardial va kardiopulmonal shovqinlar. (organik va funksional), arteriya va vena qon tomirlarni tekshirish. Yurak poroklari. 2.1.4.Ko'krak qafasining shakli, hajmi va harakatchanligini tekshirish. Nafas olish soni, tipi va ritmi, nafas qisishi va uning turlarini aniqlash. 2.1.5. O'pka va plevrani perkussiya, auskultatsiya usulida tekshirish.	2
3-modul. Ovqat hazm tizimini tekshirish			
3.1	Hazm tizimi va siydik ayirish organlarini tekshirish	3.1.1.Tizimning anatomo-fiziologik xususiyatlari, Ishtaha, oziqa va suv qabul qilish, chaynash, yutishni tekshirish va ularning buzilishlari. 3.1.2.Kavsh qaytarish va kekirishni, qayd qilishni tekshirish. 3.1.3.Og'izni va og'iz bo'shlig'I a'zolarini tekshirish. 3.1.4.Tomoq va qizilo'ngachni, 3.1.5.Kavshovchi hayvonlarda katta qorin, to'r qorin, qatqorin va shirdonni tekshirish 3.1.6. Ayirish tizimining anatomo-fiziologik xususiyatlari, tizim a'zolarini tekshirishning klinik ahamiyati. Siydik chiqarishni tekshirish	2

	va uning buzilishlarini aniqlash. 3.1.7. Buyrakni tekshirish, Buyrakni funksional usullarda tekshirish. Buyrakning siydik konsentratsiyasi va uni suyultirish qobiliyatini aniqlash. 3.1.8. Siydik oquvchi kanalchalarni, qovuqni, siydik chiqarish kanalini tekshirish. Kateterizasiya usuli. Siydik ayirish tizimi kasalliklari sindromatsiyasi.	
Jami:		6

5.2. “Klinik diagnostika” fanidan rejalashtirilgan amaliy mashg’ulotlarining kalendar tematik rejasi

Amaliy mashg’ulotlarning:			
№	mavzulari	rejasi	soat
1.	Klinik diagnostika va rentgenologiya fani maqsadi va vazifalari. Simptom, diagnoz, prognoz to’g’risida tushuncha. Tekshirganda hayvonlarga yondoshish ular bilan muomala qilish va fiksatsiya usullari.	1.1.Klinik diagnostika va rentgenologiya fani maqsadi va vazifalari. 1.2.Simptom, diagnoz, prognoz to’g’risida tushuncha. 1.3.Tekshirganda hayvonlarga yondoshish ular bilan muomala qilish va fiksatsiya usullari.	2
2.	Tekshirish usullari. Ko’rish, paypaslash, perkussiya auskultatsiya va termometriya usullarini o’rganish.	2.1.Tekshirish usullari. Umumiy tekshirish usullari. 2.2.Ko’rish, paypaslash, perkussiya usullari va turlari. 2.3.Auskultatsiya va termometriya usullarini o’rganish. 2.4.Isitma va uning tasnifi.	2
3.	Hayvonlarni umumiy tekshirish Hayvonlarni ro’yxatdan o’tkazish, anamnez ma’lumotlarini to’plash va gabitus)ni aniqlash.	3.1.Hayvonlarni klinik tekshirish tartibi. 3.2. Hayvonlarni ro’yxatdan o’tkazish va anamnez ma’lumotlarini to’plashni o’rganish. 3.3.Hayvonlarning tashqi ko’rinishi (gabitus)ni aniqlash	2
4.	Nafas tizimini tekshirish.	4.1.Nafas tizimini tekshirish. Burun bo’shlig’ini tekshirish 4.2.Qo’shimcha bo’shliqlarini tekshirish. 4.3.Hiqildoq va kekirdakni tekshirish.	2

		4.4.O’pkani perkussiya va auskultatsiya usullari bilan tekshirish.	
5.	Yurak sohasini ko’rish, paypaslash, perkussiya va auskultatsiya usuli bilan tekshirish	5.1.Yurak sohasini ko’rish, paypaslash, perkussiya usullari bilan tekshirish. 5.2.Yurakning chegaralari va uning kasalliklarda o’zgarishi. 5.3.Yurakni auskultatsiya usuli bilan tekshirish.	2
Jami:			10

5.3. “Klinik diagnostika” fanidan rejalashtirilgan laboratoriya mashg’ulotlarining kalendar tematik rejasi

Laboratoriya mashg’ulotlarning:			
№	mavzulari	rejasi	soat
1.	Og’iz bo’shlig’i organlarini va tezak chiqarishni, tezakni, jigarni tekshirish.	1.1. Og’iz bo’shlig’i atrofi va lablarni, og’iz shilliq pardasini, til va tishlarni tekshirish tartibi hamda usullari. 1.2.Og’izdan oqayotgan suyuqlikni tekshirish. 1.3.Tezak chiqarishni tekshirish, tartibi va usullari. 1.4.Tezakni tekshirish. tartibi va usullari. Jigarni tekshirish	2
2.	Siydik ayirish organlarini tekshirish.	2.1. Ayirish tizimining anatomo-fiziologik xususiyatlari, tizim a’zolarini tekshirishning klinik ahamiyati. Siydik chiqarishni tekshirish va uning buzilishlarini aniqlash.. 2.2.Buyrakni tekshirish. Buyrakni funksional usullarda tekshirish.Buyrakning siydik konsentratsiyasi va uni suyultirish qobiliyatini aniqlash. 2.3.Siydik oquvchi kanalchalarni, qovuqni, siydik chiqarish kanalini tekshirish. Kateterizasiya usuli. Siydik ayirish tizimi kasalliklari sindromatikasi.	2
Jami:			4